



ISLOM DINI VA MILLIY TARBIYA

ABDUMUTALOVA BIBIOYSHA SHUHRATJON QIZI*Namangan davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti**Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi**E-mail: bibioyshaabdumatalova@gmail.com Tel:+998976821504*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Islom dini va dinning bola tarbiyasidagi ahamiyati, milliy tarbiya va uning ahamiyati , milliy tarbiyani yosh avlodlarga singdirishda ajdodlarimiz o'gitlari , jadidlarimizning tarbiya haqidagi fikrlari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'z: Islom dini, Hijoz, Qur'oni Karim, Abdulla Avloniy, "Turkiy guliston yohud axloq", Abu Nasr Farobi, Abu Homid G'azzoliy, Milliy tarbiya.

ИСЛАМ И НАЦИОНАЛЬНОЕ ВОСПИТАНИЕ

Аннотация: в этой статье рассказывается о роли ислама и религии в воспитании детей, о национальном воспитании и его значении, об учении наших предков в привитии национального воспитания подрастающему поколению, о взглядах наших джадидов на воспитание.

Ключевые слова: Ислам, Хиджаз, Коран, Абдулла Авлани, "Тюркский гулистан йахуд этика" Абу Наср Фарабии, Абу Хамид Газалии, национальное воспитание.

ISLAM AND NATIONAL EDUCATION

Abstract: This article provides information about the importance of islam and religion in child education , national education and its importance , the techings of our ancestors in instilling national education in young generations , and the thoughts of our ancestors about education.

Key word: Islamic religion, Hijaz, Holy Quran, Abdullah Awlani , "Turkish culture and morality", Abu Nasr Farabi, Abu Hamid Ghazali, National education.



Islom dini jahonda keng tarqalgan u ch dinning biri. Islom arabcha „itoat etish”, „bo’ysunish “ degan ma’nolarni anglatadi. Islom dini VII asrda Hijoz ya’ni G’arbiy Arabistonda paydo bo’lgan. Uning asoschisi Muhammad (s.a.v.) sanaladi. Islom-insonlarni to’g’ri yo’lga solish uchun Alloh taolo tomonidan yuborilgan oxirgi ta’limot sanaladi. Payg’ambarimiz oldin o’z ham shaharlarini so’ng barcha arablarni yagona allohga e’tiqod qilish , to’g’ri hayot kechirish u dunyoda jannatga kirish uchun bu dunyoda ezgu ishlarga davat etadi. Islom dinining muqaddas kitobi- Qur’oni Karim hisoblanadi.

Tarbiya- Shaxsda muayyan jismoniy , ruxiy, axloqiy, ma’naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda yashash uchun zarur bo’lgan xususiyatlarga ega bo’lishini ta’minlash yo’lida ko’riladigan chora tadbirlar yig’indisi.

Islom dinida bola tarbiyasiga katta ahamiyat beriladi. Islomda farzandni bir ne’mat sifatida ko’riladi va u ne’matdan tashqari alloh taoloning ota-onaga berilgan omonati ham hisoblanadi. Payg’ambarimiz salollohu alayhi vassallam aytadilar,, ota-bolaga go’zal odobdan yaxshiroq narsa bera olmaydi “ . Shuning uchun islom dinida bola tarbiyasiga jiddiy ahamiyat qaratiladi. Xazrati Ali: „O’zingizga va axlingizga yaxshilikni o’rgatinglar va ularni odobli qilinglar” deb aytadilar . Axli ayolini farzandlarini ilmli qilib tarbiyalash ham oila boshlig’ining alloh taolo oldidagi burchi hisoblanadi. Abdulla Avloniy o’zining „Turkiy guliston yohud axloq” asarida islomiy tarbiya haqida quyidagilarni keltirgan: „ Shariati islomiyada o’z bolalarini yaxshilab tarbiya qilmak otalarga farzi ayn , o’z millatining yetim qolgan bolalarini tarbiya qilmak farzi kifoyadir “. Ya’ni islom dinida farzand tarbiyasi farz sifatida qaraladi.

Milliy tarbiya-bizning milliy tarbiyamiz ham bevosita islom dini bilan chambarchas bog’liq . Bizda bolalarga yoshlikdan kattalarga salom berish, o’zidan kattani hurmat qilish kabilarga o’rgatiladi. Kattaga hurmat ham islom dinining asoslaridan biridir.

Tarbiya- eng avvalo oiladan olinadi keyin esa bog’cha, maktab kabi bosqichlarda davom etadi . Yosh avlodga milliy tarbiyani singdirishda eng avvola



yoshligidan xalq og'zaki ijodi , milliy adabiyotlar , jadidlar asarlari orqali ham o'rgatilishi mumkin.

Abdulla Avloniy o'zining „ Turkiy guliston yohud axloq asarida “ tarbiya haqida qisqacha tarif bergan: Tarbiya - „Pedagogika “ ya'ni bola tarbiyasining fani demakdur.

Ilmi axloqning asosi tarbiya. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak yaxshi xulqlarni o'rgatmak yomon xulqlardan o'sdurmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabiturki tabib hastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga „ yaxshi xulq” degan davoni ichidan , „poklik”degan davoni ustidan berub „, katta qilmog'i lozimdir deydi.

Har kishining dunyoda oromi joni tarbiyat,
Balki oxirida erur dorul amoni tarbiyat.
Tarbiyat hamroh etadur hu ila ruzvonlararo,
Gar desam bo'lmas xato jannat makoni tarbiyat.
Ey, Otalar. Jonlaringizdan suchuk farzandingiz,
G'ayrat aylang o'tmasun vaqt zamoni tarbiyat.
Muyayi zili xumodur tarbiyatning soyasi,
Bizda anqo tuxmidek yo'q oshyoni tarbiyat.

Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot- yo mamot, yo najot- yo halokat , yo saodat - yo falokat masalasidir. Insonning o'rnini hayotda belgilaydigan narsa avvalo uning ilmidan ham ko'ra tarbiyasi hisoblanadi.

Tarbiyaning asosi oila muhitidir. Bola uyida nimani ko'rsa shunga taqlid qilib o'sadi. Oilada ota olajanob keng fe'l , bosiq , mulohazali va ozgina siyosatliroq bo'lishi, ona esa mehribon, rahmli bolalarini behuda qarg'amaydigan va muloyim bo'lmos'gi lozim. Bolalarni taqlidchanlik xususiyati mavjudligi tufayli ularni tarbiyalashda ota- onaning ongi, ma'naviyati, bilimi muhim ahamiyatga egadir.



Farzandlarni sog'lom e'tiqodli, jismonan baquvvat qilib tarbiyalash ham ota- ona zimmasiga yuklangan.

„Bola aziz odobi undan aziz” deb xalqimizda bejiz maqol aytilmagan bola qancha shirin bo'lmasin odobi birinchi o'rinda turadi. Bola hayotining ko'p qismi oilada o'tadi. Shu boisdan mavjud an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta'sirida bola asta-sekin kamol topib boradi. Masalan dasturxonga hamma jam bo'limguncha, ovqatlanishni boshlamaslik, taomga avval katta odamlar qo'l uzatishi kabilarni bolaga o'rgatish ham milliy tarbiyaning bir ko'rinishi hisoblanadi. Zero,, Qush uyasida ko'rganini qiladi “ degan maqol ham bejiz aytilmagan.

Milliy Tarbiyaning asoslardan yana biri bu sharq allomalarining ilmiy merosi ham hisoblanadi. Jumladan Abu Nasr Farobiy o'zining „ Fozil odamlar shahri” asarida : „ Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmaydi va ulardan jirkanadi”. Inson yoshligidan yaxshi tarbiya ko'rishi va ko'p narsani o'rganishi lozim aks holda hayotning ko'p joyida qoqlidi.

„Har kimki ilm-hikmatni desa , uni yoshligidan boshlasin , sog'-salomatligi yaxshi bo'lsin , yaxshi axloq va odobli bo'lsin , so'zining uddasidan chiqsin , yomon ishlardan saqlansin xiyonat, makr va hiyladan uzoq bo'lsin , diyonatli bo'lsin , barcha qonun -qoidalarni bilsin , bilimdon va notiq bo'lsin ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin ilm va ahli ilmdan mol –dunyosini ayamasin barcha real , moddiy narsalar to'g'risida bilimini egallasin”. Bundan ko'rinib turibdiki yaxshi inson bo'lism uchun yoshlikdan harakat qilish , yaxshi tarbiya olish , yaxshi ilm egallashi kerak. Buni yo'lida vaqtini behuda ketkazmasligi kerak ekan.

Imom Abu Homid G'azzoliy „Kimyoi saodat “ nomli asarida „ Inson farishta va hayvon orasidagi mahluqdir . Hayvon rivojlanmaydi , chunki uning kamolot quvvati yo'q. Farishta ham rivojlanmaydi , chunki uning o'zi pok ilohiy nурдан iborat. Faqat insondagina rivojlanish ruhiy kamolot mavjud” deya takidlaganida insonlarning yuksak ma'naviyati ifodalangan.



Milliy tarbiyaning asosiy yo'nalishlari- Mustaqil Respublikamizda o'quvchi yoshlarni komil inson qilib tarbiyalash oliy maqsadimiz hisoblanadi va bu „Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot barpo etish “ga xizmat qiladi. Chunki komil inson tarbiyasi milliy qadriyatlarimiz, buyuk ajdodlarimizning orzu-umidlari va asosiy g'oyasi bo'lib kelgan. Shu bois Respublikamizdagi barcha ta'lif tizimida komil insonni tarbiyalash milliy g'oyaning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqida ushbu masala haqida shunday takidlanadi: „O'zbekiston mustaqil va kuchli davlat qurishidan asosan maqsad inson, uning huquq va erkinliklari oliy qadriyat hisoblanadigan va hurmat qilinadigan adolatli jamiyat barpo etishdir. Ayni vaqtida musulmon olami va jahon hamjamiyatidagi munosib o'rnimizni yanada mustahkamlashdir”. Bu avvalambor, ta'lif va ma'rifat tizimini takomillashtirish, mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yoshlalmi zamonaviy bilim olishga yo'naltirish, barkamol shaxsni tarbiyalash bilan bog'liq ekanini yaxshi anglaymiz. 1997-yilda qabul qilingan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va boshqa davlat dasturlarining hayotga tatbiq etilishi samarasida mazkur soha tubdan isloh qilindi, zamonaviy uzlusiz ta'lif tarbiya tizimi yaratildi”. Har bir millatning saodati, davlatning tinchchligi va yaxshi bo'lishi yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdir.

Bu o'rinda Milliy tarbiyaga milliy rivojlanishimizning asosiy vositasi sifatida qarash va uni amalga oshirishda Barkamol avlodni tarbiyalashda albatta hozirgi kunda milliy qadriyatlarga sadoqat, jamiyatdagi tinchlik, xotirjamlikni saqlashga ongli munosabatda bo'lish , tinch va farovon hayot yaratish , ijtimoiy ma'naviyatni yuksaltirishga intilish kabi omillar tarbiya ishlarida asosiy o'rinn egallaydi. Shu sababli bugungi yoshlar dunyoqarashida millat, Ona tuproq, Ona Vatan kabilalar turli xil tarbiyaviy tadbirlar , boy ma'naviy merosimiz haqidagi tushunchalar tarkib topib boradi. Yoshlarni tarbiyalashda ular ongida,millat, milliy axloq, milliy g'urur, milliy tarbiya, milliy g'oya, Vatan tuyg'usi, Vatan qayg'usi, Vatan sog'inchi kabi tushunchalarni singdirib borish , ularning milliy dunyoqarashini kengaytirish lozim.



Binobarin milliy tarbiya e'tiborsiz qoldirilsa , stixiyali tarzda kechsa, xalqning milliy o'zligini anglash darajasi , milliy g'ururi madaniyati vatanparvarlik darajasi susaya boradi. Chunki har bir induvid o'ziga xos milliy-madaniy an'analar , me'yorlar bo'lgan jamiyatda shakllanadi. Milliy urf –odat , me'yorlar, an'analar ruhida ijtimoiylashuvi uni ana shu madaniy- tarixiy birlikning a'zosiga aylantiradi.

Xalq tajribasida tarbiya usuli ham o'zbeklarda asosiy o'rinni egallab kelgan. Yoshga munosib o'zbekona ta'sir ko'rsatish yo'li va vositalari yaratilgan. Kerak bo'lganda rag'bathlantrish turlaridan foydalanilgan , lozim bo'lsa jazolangan. „Bir bolaga yetti mahallaga ota-onा“ deb beziz aytilmagan. Xatolikka yo'l qo'ygan bola kimligidan qat'iy nazar jazolangan.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki islom dini va milliy tarbiyamiz doimo uzviy ravishda mustahkamlangan. Yosh avlodni tarbiyalashda bolalarni yoshligidan milliy an'analarimiz va qadriyatlarimizni o'rgatgan holatda tarbiyalansa, ularga ajdodlar o'gitlarini o'rgatilsa va vaqtlarini behuda sarflanmasa milliy tarbiya ruhida tarbiyalangan avlodlarni Vatan ravnaqidagi hissasi katta bo'ladi. Bunda albatta oila,mahalla va mакtabning o'rni beqiyosdir. Milliy tarbiyamizning yana bir o'ziga xos jihatlaridan biri bu „ bir bolaga yetti mahalla ota-onadir“ degan maqol ila tarbiya berilishidir bu deyarli boshqa millat vakillarida uchramaydi. Afsuski bu tarbiya usulimiz ayrim hududlarda kamayib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. TARBIYA FANIDAN O'QUV –USLUBIY MAJMUA. NAMANGAN 2024
2. ABU NASR FAROBIY „ FOZIL ODAMLAR SHAHRI“. TOSHKENT „ YOSHLAR MATBUOTI“
3. SHAYX MUHAMMAD SODIQ MUHAMMAD YUSUF „ RUHIY TARBIYA“ 3-JUZ. HIOL NASHR 2023
4. ABDULLA AVLONIY „ TURKIY GULISTON YOHUD AXLOQ“ TOSHKENT „ YOSHLAR MATBUOTI“